

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI TANQIDIY FIKRLASHGA ASOSLANGAN INTELEKTUALLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

*Pardaboyeva Dilnoza G'aybulla qizi*

*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida intellektual va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mezonlari, ularning kasbiy shakllanishdagi ahamiyati hamda rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida o'qituvchi shaxsining intellektual salohiyati, analitik tafakkur, refleksiv yondashuv va ijodiy fikrlash ko'nikmalari o'zaro bog'liqlikda o'rganildi.

**Kalit so'zlar:** intellektual rivojlanish, tanqidiy fikrlash, refleksiv yondashuv, mezon, pedagogik jarayon, kasbiy tayyorgarlik.

**Аннотация:** В статье анализируются критерии развития интеллектуального и критического мышления в процессе подготовки учителей начальных классов, их значение в профессиональном становлении, а также педагогические факторы, влияющие на их развитие. В ходе исследования изучались интеллектуальный потенциал личности учителя, аналитическое мышление, рефлексивный подход и творческое мышление во взаимосвязи.

**Ключевые слова:** интеллектуальное развитие, критическое мышление, рефлексивный подход, критерий, педагогический процесс, профессиональная подготовка.

**Abstract:** The article analyzes the criteria for the development of intellectual and critical thinking in the process of training primary school teachers, their importance in professional formation, and pedagogical factors influencing their development. During the study, the intellectual potential of the teacher's personality, analytical thinking, reflective approach, and creative thinking skills were studied in their interrelation.

**Keywords:** intellectual development, critical thinking, reflective approach, criterion, pedagogical process, professional training.

### **Kirish**

Bugungi kunda raqamli va tezkor o'zgarayotgan jamiyatda boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z faoliyatini yangilanishlarga moslashtira oladigan, analitik fikrlovchi, ijodkor va tanqidiy qarorlar qabul qiluvchi shaxs bo'lishi zarur. Shuning uchun o'qituvchi tayyorlash jarayonida intellektual va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasi alohida e'tibor talab etadi.

Tanqidiy fikrlash — bu shaxsning mavjud bilimlarni tahlil qilish, baholash va yangicha yechimlar ishlab chiqish qobiliyati bo'lib, u intellektual rivojlanishning

ajralmas qismidir. Intellektual fikrlash esa o'qituvchining kasbiy faoliyatida mantiqiylik, refleksivlik va moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi pedagogika ta'limida intellektual va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mezonlari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shu sababli, ularni aniqlash, o'lchash va baholash tizimini yaratish zaruriyati paydo bo'lmoqda.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida intellektual va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mezonlarini aniqlash hamda ularni amaliyotda qo'llashning samarali shakllarini ishlab chiqishdir.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning metodik usullari.

- “Klaster” usuli
- Mohiyati: Matnni grafik tarzda tashkil qilish usuli. U “aqliy hujum”ning ko'rinishidir.

- Amalga oshirish bosqichlari:
- Varaq (yoki doska)ning markaziga kalit so'z yoziladi.
- Atrofiga shu mavzuga tegishli g'oya, fakt, obraz va fikrlar qo'shiladi
- Kalit tushuncha va g'oyalar chiziqlar bilan bog'lanadi, ularning ham o'z yo'ldoshlari paydo bo'ladi.

- Natija: Axborot maydoni shakllanadi, fikrlash jarayoni ko'zga ko'rinadi.
- Ish qoidalari:
- Har qanday g'oyani qayd etishdan qo'rqmaslik.
- Vaqt tugamaguncha ishni davom ettirish.
- Iloji boricha ko'proq bog'lanishlar qurish.
- Qo'llanilishi:
- Motivatsiya va refleksiya bosqichida.
- Individual ish yoki kollektiv muhokama tarzida.
- Har qanday fan yoki matn turida.
- Kalit tushunchalar bilan ishlash
- Mohiyati: Har bir matn asosiy ma'noni ochib beruvchi 5–9 ta kalit tushunchaga tayanadi.

- Maqsad: Oquvchilarda matn mazmunini anglash va o'z “spravochniklarini” tuzish ko'nikmasini shakllantirish.

- Ish usullari:
- Darsgacha — kalit tushunchalar asosida o'z matnini tuzish.
- Darsdan keyin — o'z versiyani kitob ma'lumoti bilan taqqoslash.
- Ikkita ta'rif berish va qaysi biriga yaqinligini asoslash.
- Kalit tushunchalarni klasterga joylashtirish.
- Xulosalar bilan ishlash
- Mohiyati: Har bir matn maqsad bilan boshlanib, xulosa bilan yakunlanadi.
- **Funksiyalari:**

- Matn tuzilishini ta'minlaydi.
- Muallif o'zini tekshiradi (maqsadga erishdimi?).
- Talaba o'qilganni qayta fikrda mustahkamlaydi.
- Xulosa — qisqa tezislar shaklida mazmunni yoritadi.
- **Topshiriqlar:**
- Tayyor xulosalardan birini ochib berish.
- O'z xulosalar tizimini tuzish.
- Xulosalarni shaxsiy izohlar bilan to'ldirish.
- Matnda to'g'ridan-to'g'ri javobi yo'q, ammo talabada tug'iladigan savollarni shakllantirish.

**Afzalliklari:**

- Materialni tizimlashtiradi.
- Oson taqqoslash va solishtirish imkonini beradi.
- Oson eslab qolishga yordam beradi.
- Ish jarayonida turli mashqlarni bajarishga sharoit yaratadi.

R. Sternbergning “Pentagonal implitsit nazariyasi”ga ko'ra, shaxsning intellektual faoliyati quyidagi 5 asosiy belgiga javob berganda uni “iqtidorli” deb hisoblash mumkin:

No	Belgi nomi	Mazmuni
1	Normativlik (Normativeness)	Iqtidorlilik belgilari jamiyat tomonidan qabul qilingan va ahamiyatli bo'lishi kerak.
2	Qiymatdorlik (Value)	Ushbu qobiliyat va natijalar ijtimoiy jihatdan muhim va qiymatli bo'lishi lozim.
3	Kamyoblik (Rarity)	Qobiliyatlar ko'pchilikda uchramaydi, noyob xususiyatlarga ega bo'ladi.
4	Ma'qullik (Productivity)	Iqtidorli shaxs faoliyati samarali va natijador bo'ladi.
5	Namoyish etilish (Demonstrability)	Iqtidor belgilarini kuzatish, o'lchash yoki namoyon qilish mumkin bo'lishi kerak.

Sternberg shu beshta shartni belgilab, ularsiz shaxsni haqiqiy “iqtidorli” deb baholash mumkin emas, deb hisoblaydi. Bundan tashqari V. Halpernning “Critical Thinking Framework”, D. Klusterning “Intellectual Skills Model”, hamda mahalliy olimlar R. Mavlonova, M. To'raqulova va A. G'ozievlarning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyalariga asoslanishimiz lozim.

**Yuqoridagilardan kelib chiqib boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida intellektual va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mezonlari quyidagicha belgilanadi:**

- talabaning **subekt sifatida shakllanishi**;
- Tanqidiy fikrlashning **asosiy kognitiv ko'nikmalari** (tushuntirish, tahlil, baholash, xulosa qilish, o'zini-o'zi boshqarish);
- Tanqidiy fikrlashni baholash mezonlari va uning ahamiyati;
- **boshlang'ich tanqidiy fikrlash ko'nikmalari** va ularni aniqlash uchun qo'llaniladigan usullar.

Pedagogik muammoli vaziyatli topshiriqlarni hal etish asosida talaba bo'lajak boshlang'ich faoliyat muammolarini hal etish usullarini egallaydi va bo'lajak o'qituvchida turli xil pedagogik vaziyatlarni hal qilish borasidagi ijodiy ko'nikmalar shakllanadi.

№	Tanqidiy fikrlash ko'nikmalari	Qo'llanilish sohasi / Maqsadga muvofiqligi
1	<b>Tushuntirish</b>	Axborotni to'g'ri anglash, boshqalarga yetkazish, kasbiy holatlarda fikrni aniq bayon qilish
2	<b>Tahlil</b>	Muammoni hal etishda ma'lumotlarni saralash, ortiqcha va zarur ma'lumotni ajratish
3	<b>Baholash</b>	O'zining va boshqalarning qarashlarini tanqidiy baholash, obektiv qaror qabul qilish
4	<b>Xulosa chiqarish</b>	Turli ma'lumotlardan yangi qaror yoki yo'l topish, kasbiy vaziyatda to'g'ri yo'nalishni aniqlash
5	<b>O'zini-o'zi boshqarish</b>	O'z ishini qayta ko'rib chiqish, tuzatish, kasbiy rivojlanishga moslashish

Intellektual faoliyatda mantiqiylik, uzviylik va ijodkorlik birgalikda namoyon bo'ldi. Ushbu natijalar Sternberg va Halpern tomonidan ilgari surilgan tanqidiy fikrlash nazariyalari bilan uyg'unlikda ekanini ko'rsatdi. Shuningdek, pedagogik omillar – o'qituvchining yo'naltiruvchi roli, ochiq muhit yaratish, erkin fikrlashga rag'bat va refleksiv tahlil imkoniyatlari – o'qituvchi intellektual salohiyatining rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida intellektual va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish quyidagi shart-sharoitlarda samarali kechadi:

Shaxsga yo'naltirilgan va refleksiv o'quv muhitini yaratish;

Muammoli, tahliliy va ijodiy topshiriqlarni tizimli qo'llash;

Baholash mezonlarini aniq belgilab, o'qituvchi o'z o'sishini tahlil qila oladigan monitoring tizimini yo'lga qo'yish.

Bunday yondashuv natijasida o'qituvchi intellektual jihatdan yetuk, tanqidiy fikrlovchi va kasbiy jihatdan mustaqil shaxs sifatida shakllanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Dilnoza, P. (2025). Methodology for Developing the Intellectuality of Future Primary School Teachers on The Basis of Critical and Creative Thinking. *International Journal of Pedagogics*, 5(03), 100-103.
2. Gardner H. *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. — New York, 2011.
3. G'oziev E.G. *Psixologiya asoslari*. — Toshkent: O'qituvchi, 2006.
4. Mavlonova R.A. *Pedagogik mahorat va innovatsion ta'lim texnologiyalari*. — Toshkent, 2019.
5. Pardaboyeva, D. G. (2024). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARINI TANQIDIY FIKRLASHGA ASOSLANGAN INTELEKTUAL RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. *Inter education & global study*, (4 (1)), 220-227.
6. Pardaboyeva Dilnoza G'aybulla Qizi, P. D. G. A. (2024). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 4(7S), 521-523.
7. Sternberg R. *The Theory of Successful Intelligence*. — Cambridge University Press, 1999.